YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (3)

ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2026

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 2026-yil, may.
3-qism

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay’ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G‘afforovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko‘nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o‘g‘li, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig‘i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o‘rinbosari
Ochilov Farkhod, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig‘i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li, TDIU katta o‘qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra’no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:
Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:
Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

MUNDARIJA

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR 12
Muxiddin Kalonov

O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 28
Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li

BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA 34
Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich

O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 41
Bobonarova Kamola

SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI 47
Azizova Habiba Arslonovna

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI 56
Yusupova Dilbar Mirabidovna

КАРБОНОВЫЕ КРЕДИТЫ В АГРАРНОМ СЕКТОРЕ КАК ИНСТРУМЕНТ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА 61
Абдуллаева Зайнаб Руслановна

BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI 66
Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li

SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI 73
Ravshanjon Azimovich

O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI 80
Davidxodjayev Oybek Obidovich

O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI 85
Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.

IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI 91
Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li

SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI 96
Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi

ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY 100
Erkin Temirovich Shodiev

THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT 105
Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich

TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI 113
Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

AHOLI ISTE'MOL MADANIYATI VA MILLIY IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI 118
Rustamov Sheroz Oblokulovich

ISHLAB CHIQARISH OMILLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: KOBB–DOUGLAS MODELI ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL 123
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich

BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQINDILARNI KOMPLEKS BOSHQARISH 129
Firas Halawani, Feruza Insavalieva

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ 139
Шафикова Луиза, Ойбек Камилов

ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА РОСТА 150
Омонтурдиева Диёра

YER VA SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISHDA DRONLARDAN FOYDALANISH 155
Matkarimov Mansur

YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEXANIZMINING DASTAKLARI 161
Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi

СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН 167
Дониерова Фотимабону Алишер кизи

KAMBAG'ALLIKNI MONETAR VA KO'P O'LCHOVLI BAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA IQTISODIY O'SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH 173
Sotiboldiyev Asadbek Hasan o'g'li

QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKOR ISHLAB CHIQARISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI 179
Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich

KICHIK BIZNESDA XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI 188
Raximov Zafar Komilovich, Mamatazimov Jaloliddin Sherzod o'g'li

MANAGING DIGITAL TRANSFORMATION IN PRIMARY HEALTHCARE: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW 192
Ashurova Sitora Xusnitdin qizi

МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ ВОД В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ 197
Тиллахуджаев Аббосхон, Дилфуза Шакирова, Мухамедалиева Сайёра, Ойбек Камилов

JAHON ME'MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR, ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR 208
Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li

IMPROVING SALES PROMOTION STRATEGIES FOR UZBEK EXPORTERS IN DEVELOPING FOREIGN MARKETS 217
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Rustamova Madina Baxrom qizi

ENVIRONMENTAL DEGRADATION AND CARBON EMISSION: INTERCONNECTED LINKS WITH ECONOMIC GROWTH IN POST-SOVIET 222
Rajabova Malika Nuriddin qizi

NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR VA YONDASHUVLAR 230
Qosimova Gulyar Axmatovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН 236
Наурызбаев Алиакбар Рустамович

ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ 239
Усманова Зумрад Исламовна

KIMYO SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI 242
Muxammadiyeva Munira Zaynabutdinovna

QISHLOQ UY-JOY QURILISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINING AHAMIYATI 248
Xannarov Komiljon Karimovich

TIBBIYOT MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH VA VAZIFALAR TAQSIMOTI TAMOYILLARI 253
Saidov Suhrob Shodmonovich

HUDUDIY IQTISODIY INTEGRATSIYA RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI UCHUN AHAMIYATI 257
Akbarova Kamola Akmaljonovna

MOLIYAVIY TAHLIL AXBOROT BAZASINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI 263
Karimov Eminjon Gapardjonovich

XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI 270
Shermatov Axror Abdixakimovich

QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA ENERGIYA SAQLASH TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI 275
Ergash Bobobekov

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI 281
Yo'ldoshev Jamshid Nu'monovich

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 285
Qurbonova Rahima Jamshedovna

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI 290
Ibroximova Nafosat Abdusattor qizi

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR 297
Raximov Zikrullo Soyibjon o'g'li

RAQAMLI MUHITDA REKREATSION XIZMATLAR MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI 302
Usmanova Zumrad Islamovna

WAYS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATIONAL SERVICES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS 306
Iskhakova Sarvar Ayubovna, Amriyeva Shahzoda Shukhratovna

BARQAROR TURIZMGA ERISHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI 312
Baxtiyorov Javlon Fazliddin o'g'li

MEVA MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TIZIMI 316
Yusufova Laylo G'ayrat qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

AHOLISI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA QISHLOQ JOYLARINING BARQAROR RIVOJLANISHI: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR 325
Yusufjonov Jahongir Ilxomjon o'g'li

СТРАТЕГИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ В ФИЛОСОФИИ СТОИЦИЗМА И СОВРЕМЕННОЙ ТЕОРИИ СТРАТЕГИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ МАРКА АВРЕЛИЯ И КОНЦЕПЦИИ СТРАТЕГИРОВАНИЯ ВЛАДИМИРА Л. КВИНТА 329
Норкулов Суннатбек Алишерович

O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH 335
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich

MAMLAKATIMIZDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA QULAY BIZNES MUHITINING TA'SIRI 341
Vahidova Gulhayyo Arzi qizi

O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BANK KREDITLARI BILAN TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI 347
Raxmanova Ilmira Rustamovna

SAVDO KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MAQSADLI MARKETINGDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI 354
Toxirov Javlon Raximovich

MAXSUS IQTISODIY ZONALARNI TARKIBIY QISMLARI BO'YICHA BAHOLASHNING MUHIM OMILLARI 361
Arslonov U. U.

RESURSLAR TA'MINOTI TIZIMINING TASHKILIY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI 367
Arziqulova Oybarchin Eshquvat qizi

JAHON SAVDO TASHKILOTI TAMOYILLARI ASOSIDA SOLIQ SIYOSATINI MUVOFIQLASHTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI 373
Saitqulov Suxrob Shavkatovich

TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARNING KREDIT QOBILIYATINI BAHOLASH UCHUN SKORING MODELIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY ETISHNING AHAMIYATI 380
Komiljon Karimov

OLIY TA'LIM VA AMALIYOT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI ASOSIDA KADRLAR TAYYORLASH MENEJMENTINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI 386
Karimova Xurshida Raximovna

QO'RIQLASH DEPARTAMENTIDA SOLIQ YUKLAMASINING MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI VA UNI ICHKI MOLIYAVIY NAZORAT HAMDA AUDIT NUQTAYI NAZARDAN TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 390
Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o'g'li

ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА И ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 396
Ли Марина Рудольфовна

O'ZBEKISTONDA YER RESURSLARINING AGRAR IQTISODIYOTGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH 402
Xoshimova Sevara Baxromovna

FARMATSEVTIKA IMPORT KOMPANIYALARIDA REKLAMA SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH: "SHINING IMPEX" AJ MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT 410
Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna, Nurullayev Ilyosbek Xojiabdulla o'g'li

HUDUDIY IQTISODIY O'SISHNI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH 417
Turayev Baxtiyor Ergashevich

QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'NALISHLARI 421
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi

QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA DAVLAT SUBSIDIYALARINING MOLIYAVIY NATIJALARGA TA'SIR KANALLARI VA ULARNI HISOBDA AKS ETTIRISH MASALALARI 427
Davronbek Matyakubovich Matkarimov, Qadamov Mirzobek Ulug'bek o'g'li

O'ZGARUVCHILAR O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNI REGRESSIYA MODELLARI ORQALI AMALIY TAHLILI 432
Sakiyeva Ozoda Batirovna, Xushvaqtova Dilfuza Ramazon qizi

INSON KAPITALIGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH 437
Zayniddinov Aloviddin Zayniddin o'g'li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

INSON KAPITALIGA YO‘NALTIRILGAN INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Zayniddinov Aloviddin Zayniddin o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: elegante070@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’limda inson kapitaliga investitsiyalarning samaradorligini oshirishning bozor tamoyillariga asoslangan moliyaviy instrumenti sifatida yoshlar va pedagog xodimlarning xorijiy oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olishini moliyalashtirish, sog‘liqni saqlash sohasida, xususan, onkologiya xizmatini rivojlantirish hamda ushbu yo‘nalishda soha mutaxassislarini o‘qitish va tayyorlashga qaratilgan investitsiyalarni xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditlari hisobiga moliyalashtirish masalalari tadqiq etilgan, mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, innovatsion iqtisodiyot, STEM-ta’lim, IT-ko‘nikmalar, sun’iy intellekt, inflyatsiya, onkologiya, kimyoterapiya.

Abstract. The article examines the issues of financing the education of young people and teaching staff in foreign higher education institutions, the development of healthcare, in particular oncology services, and the financing of investments aimed at the education and training of specialists in this field through preferential loans from international financial institutions, as a financial instrument based on market principles to increase the efficiency of investments in human capital in higher education. Existing problems are identified, and scientific proposals and recommendations are developed to eliminate them.

Key words: digital transformation, innovative economy, STEM education, IT skills, artificial intelligence, inflation, oncology, chemotherapy.

Аннотация. В статье исследованы вопросы финансирования обучения молодёжи и педагогических работников в зарубежных высших образовательных учреждениях как финансового инструмента, основанного на рыночных принципах повышения эффективности инвестиций в человеческий капитал в высшем образовании. Также рассмотрены вопросы финансирования развития сферы здравоохранения, в частности онкологической службы, а также инвестиций, направленных на обучение и подготовку специалистов данной сферы, за счёт льготных кредитов международных финансовых институтов. Выявлены существующие проблемы и разработаны научные предложения и рекомендации, направленные на их устранение.

Ключевые слова: цифровая трансформация, инновационная экономика, STEM-образование, IT-навыки, искусственный интеллект, инфляция, онкология, химиотерапия.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi, innovatsion iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari va global raqobatning kuchayishi sharoitida inson kapitali iqtisodiy o‘sishning strategik omiliga aylanmoqda. Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda inson kapitali mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishi, mehnat unumdorligi, innovatsion salohiyati va ijtimoiy barqarorligini ta’minlovchi muhim resurs sifatida baholanadi. Shu sababli ta’lim, sog‘liqni saqlash, kasbiy tayyorgarlik, ilm-fan va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalarni samarali moliyalashtirish masalasi xalqaro iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalarning samaradorligi ko‘p jihatdan ularni moliyalashtirish tizimining barqarorligi, diversifikatsiyalashganligi va institutsional samaradorligiga bog‘liq. Rivojlangan mamlakatlarda ta’lim va innovatsiya sohalariga xususiy investitsiyalar hamda kapital bozorlari orqali resurs jalb qilish mexanizmi keng rivojlangan bo‘lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat budjeti va xalqaro moliya institutlari mablag‘lari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, inson kapitaliga investitsiyalarning qaytaruvchanlik darajasi uzoq muddatli bo‘lgani sababli mazkur sohani moliyalashtirishda maxsus moliyaviy instrumentlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda inson kapitalini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanib, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ilm-fan va yoshlar siyosati sohalariga yirik investitsiyalar

yo‘naltirilmoqda. Xususan, maktabgacha ta’lim qamrovini kengaytirish, oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish va innovatsion ekotizimni shakllantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. “Mamlakatimizda bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini 80 foizga yetkazish, umumiy o‘rta ta’lim maktablari va akademik litsey bitiruvchilarini oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, bir yil davomida doimiy ish o‘rniga ega bo‘lgan oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ulushini 65 foizga yetkazish, saraton kasalligidan erta (30–69 yosh) o‘limni 5,2 foizgacha kamaytirish hamda o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini 78 yoshga yetkazish” kabi vazifalar belgilangan [1]. Shu bilan birga, inson kapitaliga investitsiyalarni moliyalashtirishda davlat mablag‘lari muhim o‘rin egallamoqda. Kelgusida xususiy sektor ishtirokini yanada kengaytirish va zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarini rivojlantirish ushbu yo‘nalish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish amaliyotini xalqaro tajriba asosida tahlil qilish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash hamda samarali moliyaviy mexanizmlarni joriy etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlari va xalqaro tajribasini tahlil qilish, moliyalashtirish amaliyotining mavjud muammolarini aniqlash hamda O‘zbekistonda inson kapitaliga investitsiyalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inson kapitaliga investitsiyalar masalasi iqtisodiy nazariya va zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Inson kapitali konsepsiyasi mehnat resurslarining bilim, ko‘nikma, sog‘liq va intellektual salohiyatini iqtisodiy o‘sishning asosiy omili sifatida baholaydi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, ta’lim, sog‘liqni saqlash, kasbiy tayyorgarlik va innovatsion ko‘nikmalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlaydi. Inson kapitali nazariyasi iqtisodiy fanning alohida yo‘nalishi sifatida XX asrning 60-yillarida shakllangan. 1960-yilda Chikago universiteti professori T. Shuls “insonga sarmoya” tushunchasini ilmiy muomalaga kiritdi. 1962-yilda ushbu muammoga bag‘ishlangan “Siyosiy iqtisod jurnali”ning maxsus soni nashr etildi. 1964-yilda G. Bekkerning “Inson kapitali” kitobining birinchi nashri chop etildi.

“Klassik siyosiy iqtisod doirasida inson kapitali nazariyasining asoslari ancha oldin qo‘yilgan. Atoqli ingliz tadqiqotchisi, davlat arbobi, tadbirkor, birinchi professional iqtisodchi, iqtisodiy statistika asoschisi U. Petti (1623–1687) mamlakat aholisini milliy boylikning eng muhim elementi deb hisoblagan. U aholi qiymatini uning daromadlarini kapitallashtirish nuqtai nazaridan baholashning miqdoriy usulini ishlab chiqdi va dinamik rivojlanayotgan sanoat Angliya uchun tegishli hisob-kitoblarni amalga oshirdi”. Buni milliy inson kapitalini o‘lchashning birinchi tajribasi deb hisoblash mumkin.

Inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar borasida MDH mamlakatlari olimlaridan V. Shyetinin, S. Dyatlov, V. Krutko va T. Smirnovalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Inson kapitalini rivojlantirishning nazariy jihatlari bilan respublikamiz olimlaridan akademik Q. X. Abdurahmonov, R. A. Ubaydullayeva, A. O‘lmasov, A. Vahobov, G. Q. Abduraxmonova, S. A. Bozorova va boshqalarning mazkur sohaga dahldor ilmiy tadqiqot ishlarini ko‘rsatish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada mantiqiy fikrlash, prognozlash, sintez, tizimli yondashuv, tarkibiy va qiyosiy tahlil, iqtisodiy taqqoslash, ilmiy umumlashtirish hamda statistik hisoblash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali iqtisodiy o‘sishning eng muhim strategik omillaridan biriga aylanmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, uzoq muddatli iqtisodiy raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish va barqaror iqtisodiy o‘sish, avvalo, inson kapitalining sifati bilan belgilanadi. Shu sababli ta’lim, sog‘liqni saqlash, ilm-fan, kasbiy tayyorgarlik va raqamli ko‘nikmalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmini oshirish hamda ularni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Kelgusida inson kapitaliga investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish istiqbollari bir nechta muhim yo‘nalishlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Avvalo, raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan talabni keskin oshirmoqda. Natijada davlatlar STEM-ta’lim, IT-ko‘nikmalar, ma’lumotlar tahlili yo‘nalishi, sun’iy intellekt va innovatsion kasblarga yo‘naltirilgan investitsiyalarni ko‘paytirmoqda. Ayniqsa, Janubiy Koreya, Singapur va Finlyandiya kabi mamlakatlarda inson kapitaliga innovatsion investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy omilga aylangan.

Inson kapitalini rivojlantirishda yoshlar va pedagog xodimlarning xorijiy oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishini moliyalashtirish zamonaviy iqtisodiyotda strategik ahamiyatga ega yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu orqali mamlakatlar yuqori malakali kadrlar tayyorlash, innovatsion bilimlar transferi va global raqobatbardoshlikni oshirishga erishmoqda. Avvalo, rivojlangan davlatlar tajribasiga nazar tashlasak, AQSHda xorijiy oliy ta'limni moliyalashtirish asosan grantlar, stipendiyalar va ta'lim kreditlari orqali amalga oshiriladi. Buyuk Britaniyada "Chevening stipendiyasi" orqali yetakchi kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu dastur davlat budjeti hisobidan moliyalashtirilib, asosan liderlik salohiyatiga ega yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlaydi. Osiyo mamlakatlari tajribasi ham diqqatga sazovor. Xususan, Janubiy Koreyada "Brain Korea 21" dasturi orqali talabalar va ilmiy xodimlarni xorijda o'qitish va stajirovkadan o'tkazish davlat tomonidan keng moliyalashtiriladi. Bu dastur ilmiy salohiyatni oshirish va universitetlar raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Quyidagi 1-jadval ma'lumotlarida dunyoda eng ko'p xorijda tahsil olayotgan mamlakatlardan Xitoy va Hindistonni misol keltirish mumkin.

1-jadval. Ayrim mamlakatlarning xorijda tahsil olayotgan talabalari to'g'risida ma'lumot (nafar)[1]

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Xitoy	1062965	1112552	1042394	1056071	1076015
Hindiston	466597	527277	521952	630549	833835
Qozog'iston	89238	79792	79473	78224	75396
Tojikiston	27565	26864	27779	32470	32202
Turkmaniston	63552	76033	70559	60262	62124
Qirg'iziston	13019	13831	15026	16843	16306

1-jadval ma'lumotlariga qaraganda, 2019-yilda xitoylik xorijda tahsil olayotgan talabalar 1 062 965 nafarni tashkil etib, 2025-yilda bu ko'rsatkich 1 076 015 nafarga yetgan. Ya'ni, xorijda tahsil olayotgan talabalar 13 050 nafarga oshgan. Hindistonda esa bu ko'rsatkich 2025-yilda 833 835 nafarni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 1,8 barobarga ko'paygan. MDH davlatlari, jumladan, Qozog'iston tajribasida "Bolashak" dasturi alohida ahamiyatga ega. Ushbu dastur orqali iqtidorli yoshlar dunyoning nufuzli universitetlarida tahsil oladi va keyinchalik mamlakatga qaytib ishlash majburiyatini oladi. Bu mexanizm "investitsiya – qaytish – samara" tamoyili asosida qurilgan. Tahlil qilinayotgan davrda Qozog'iston va Turkmanistonlik talabalarning xorijda tahsil olish ko'rsatkichi biroz pasaygan bo'lsa, Tojikiston va Qirg'izistonda o'sish tendensiyasi kuzatiladi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda bu borada muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali talabalar va pedagog kadrlar xorijiy oliy ta'lim muassasalariga magistratura, doktorantura va malaka oshirish dasturlari bo'yicha yuborilmoqda. Moliyalashtirish davlat budjeti hisobidan amalga oshirilib, ishtirokchilardan keyinchalik mamlakatda ishlab berish talab qilinadi (2-jadval).

2-jadval. Inson kapitalini rivojlantirishning ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalari[2]

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2021	2022	2023	2024	2025
Ta'limga investitsiyalar, trln so'm	7,6	8,1	7,8	6,5	11,3
Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi, %	3,1	3,0	2,2	1,3	1,9
OTMlarda jami talabalar soni (nafar)	808439	1042100	1314542	1432810	1632571
O'zbekistonda tahsil olayotgan xorijlik talabalar soni (nafar)	4219	5503	4935	10819	12000
Xorijda tahsil olayotgan talabalar soni (nafar)	122146	141000	120563	35848	28954

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2025-yillarda O'zbekiston fuqarolarining xorijda tahsil olayotgan talabalar sonida keskin o'zgarishlar kuzatiladi va bu holatni bir necha iqtisodiy va institutsional omillar orqali izohlash mumkin. Birinchidan, 2021–2022-yillarda ko'rsatkichlar yuqori bo'lib, mos ravishda 122 146 nafardan

1 Manba: https://databrowser.uis.unesco.org/browser/EDUCATION/UIS-EducationOPRI
2 MAnba: O'zbekiston davlat statistika qo'mitasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Unesco ma'lumotlari. https://databrowser.uis.unesco.org/browser/EDUCATION/UIS-EducationOPRI

141 000 nafarga o‘sgan. Bu davr pandemiyadan keyingi tiklanish bosqichiga to‘g‘ri kelib, xalqaro mobillik qayta jonlangani, talabalar uchun chegaralar ochilgani va xorijiy ta’limga bo‘lgan talab ortishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, davlat tomonidan xorijda ta’lim olishni qo‘llab-quvvatlash dasturlari ham faollashgan. Biroq 2023-yilda ushbu ko‘rsatkich 120 563 nafarga tushgan bo‘lsa, 2024-yilda keskin ravishda 35 848 nafarga, 2025-yilda esa 28 954 nafargacha kamaygan. Bu shunchaki tabiiy pasayish emas, balki tizimli o‘zgarishlar natijasida sodir bo‘lgan.

Ikkinchidan, so‘nggi yillarda mamlakat ichida oliy ta’lim imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi. Masalan, 2021-yilda oliy ta’lim dargohlaridagi jami talabalar soni 808 439 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib 1 632 571 nafarga yetgan. Buning asosiy sababi yangi universitetlar ochilishi, xorijiy OTM filiallarining ko‘payishi va qabul kvotalarining oshirilishi natijasida talabalar uchun ichki ta’lim jozibadorligi ortib, ta’limgayo‘naltirilgan investitsiyalar ham 2025-yilda 11,3 trln so‘mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 3,7 trln so‘mga oshgan. Bu, o‘z navbatida, xorijga chiqish ehtiyojini qisqartirgan.

Uchinchidan, ushbu tendensiyaga global iqtisodiy omillar ham ta’sir ko‘rsatgan, ya’ni jahonda inflyatsiyaning oshishi, ta’lim va yashash xarajatlarining qimmatlashishi ko‘plab oilalar uchun xorijda o‘qishni moliyaviy jihatdan qiyinlashtirgan.

Yuqorida bildirilgan fikrlar va asosli tahlillardan kelib chiqib, inson kapitaliga investitsiyalarning samaradorligini oshirishning bozor tamoyillariga asoslangan moliyaviy instrumenti sifatida davlat boshqaruvi va iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash uchun zarur shart-sharoit yaratish maqsadida yoshlar va pedagog xodimlarning xorijiy oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olishini moliyalashtirish uchun yillik 20 ming AQSH dollarigacha bo‘lgan miqdorda ta’lim kreditlarini ajratish maqsadga muvofiqdir. Natijada, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyatlari yaratilib, inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirishning muhim moliyaviy mexanizmi sifatida ta’lim kreditini ajratish takomillashtiriladi.

Inson kapitalini rivojlantirishda sog‘liqni saqlash sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etib, sog‘liqni saqlashda profilaktika va birlamchi bo‘g‘inga asoslangan modelga o‘tishni chuqurlashtirish lozimdir. Insonlar og‘ir kasallik bosqichiga yetgandan keyin davolashga ko‘proq xarajat qilishdan ko‘ra, erta diagnostika, skrining, sog‘lom turmush tarzi, emlash, ona-bola salomatligi, to‘g‘ri ovqatlanish va aholi salomatligi bo‘yicha xabardorlikni oshirish ancha samaraliroqdir. Bu yondashuv mehnatga layoqatli umrni uzaytiradi, davolanish xarajatlarini kamaytiradi va ishlab chiqarishdagi yo‘qotishlarni qisqartiradi. Kelgusida tibbiy sug‘urta elementlari, raqamli tibbiyot va sifatni baholash tizimi bilan uyg‘unlashgan profilaktik model yuqori samara berishi mumkin.

“Xalqaro saraton tadqiqotlari agentligi (IARC)ning so‘nggi ma’lumotlari saraton kasalligining ortib borayotgan yukini aniq ko‘rsatib turibdi: 2012-yilda butun dunyo bo‘ylab 14,1 million yangi holat va 8,2 million o‘limdan o‘n yildan keyin 20 million yangi holat va 9,7 million o‘limgacha. IARC 2050-yilga kelib yangi saraton holatlari soni 35 milliondan oshishini, bu 2022-yilgi ko‘rsatkichga nisbatan 77 foizga ko‘pligini va o‘lim soni 2012-yilga nisbatan deyarli ikki baravar ko‘payib, 18 milliondan oshishini taxmin qilmoqda”. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti 2050-yilga kelib butun dunyo bo‘ylab saraton kasalligiga chalinish holatlari soni 75 foizdan ko‘proqqa oshishini bashorat qilmoqda.



1-rasm. Dunyo bo‘yicha yangi ishlab chiqarilgan onkologik preparatlar soni (ta)[3]

3 Manba: https://www.iqvia.com/insights/the-iqvia-institute/reports-and-publications/reports/global-oncology-trends-2025

1-rasm ma'lumotlari bo'yicha dunyoning yetakchi mamlakatlari va mintaqalarida onkologik kasalliklarga qarshi kurashish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jahon bo'yicha yangi ishlab chiqarilgan onkologik preparatlar soni 2005–2009-yillarda 30 tani tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2020–2024-yillarga kelib 132 tani tashkil etmoqda. Bu borada birgina AQSHning o'zida 2020–2024-yillarda 86 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich Xitoyda mos ravishda 87 tani, Yevropa mintaqasida 59 ta va Yaponiyada 43 tani tashkil qilgan. Ushbu holat dunyo mamlakatlarida onkologik kasalliklarning ko'payib ketayotganligi va bu kasallikka qarshi kurashish uchun katta hajmdagi investitsiyalar zarurligidan dalolat beradi.

Quyida keltirilgan 3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2025-yillarda O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasiga yo'naltirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi barqaror o'sganini ko'rsatadi. Xususan, mazkur ko'rsatkich 2021-yili 2 681,9 mlrd so'mdan 2025-yili 11 704,0 mlrd so'mgacha oshib, ya'ni qariyb 4,4 baravarga ko'paygan. Bu sog'liqni saqlash sohasining milliy iqtisodiyotda strategik ahamiyati ortib borayotganini va davlat tomonidan ushbu tarmoqni modernizatsiya qilishga katta e'tibor qaratilayotganini anglatadi. Shu bilan birga, sohaga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar va kreditlarning asosiy kapitalga kiritilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibidagi ulushi 2021–2022-yillarda 2,6–2,9 foizdan 2024–2025-yillarda 1,6–1,7 foizgacha pasaygan. Bu holat iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga, ayniqsa, sanoat, energetika va infratuzilma sohalariga yirik kapital oqimi yo'naltirilgani bilan izohlanadi.

3-jadval. Inson kapitalini rivojlantirishning sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan investitsiyalari[4]

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2021	2022	2023	2024	2025
Sog'liqni saqlashga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi, mlrd. so'm	2681,9	3406,0	5333,4	5672,5	11 704,0
Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmidagi ulushi, %	2,6	2,9	2,6	1,6	1,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi (mlrd. so'm)	7886,5	10193	12992,4	15961,8	19890,6
Butun aholining umr ko'rish davomiyligi, yil	73,8	74,3	74,7	75,1	75,2

Ya'ni, mutlaq hajm o'sgan bo'lsa-da, sog'liqni saqlash tarmog'ining umumiy investitsiyalar tarkibidagi nisbiy ulushi qisqargan. Bundan tashqari, sog'liqni saqlash sohasida xizmatlar hajmi ham jadal o'sib, 2021-yilda 7 886,5 mlrd so'mdan 2025-yili 19 890,6 mlrd so'mga yetgan. Bu aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar ko'lami va bozor hajmi kengayganini, xususiy tibbiyot, raqamli tibbiy xizmatlar va diagnostika infratuzilmasi rivojlanayotganini ko'rsatadi. Investitsiyalar o'sishi soha xizmatlari hajmining ortishi bilan bevosita bog'liq ekanligi kuzatiladi. Aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 73,8 yoshdan 75,2 yoshgacha oshganligi ijtimoiy samaradorlik nuqtai nazaridan ham ijobiy natijalar qayd etilganligini bildiradi. Bu tibbiy xizmatlar sifati yaxshilangani, profilaktika va diagnostika imkoniyatlari kengaygani hamda sog'liqni saqlash infratuzilmasi modernizatsiya qilinganini anglatadi. Umuman olganda, tahlillar sog'liqni saqlash sohasiga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiya va kreditlarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni ta'minlayotganini ko'rsatayotgan bo'lsa-da, kelgusida sohaning jami investitsiyalar tarkibidagi ulushini oshirish, ayniqsa, onkologiya sohasiga infratuzilma investitsiyalarini ko'paytirish, yuqori texnologiyali tibbiyot va inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi 4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, O'zbekistonda sog'liqni saqlashning onkologiya sohasini moliyalashtirish so'nggi yillarda bosqichma-bosqich oshirilmoqda. Xususan, onkologiyaga ajratilgan mablag'lar 2023-yildagi 11,1 mln AQSH dollaridan 2025-yilda 16,1 mln dollargacha o'sgan.

4-jadval. Onkologiyaga ajratilgan mablag'lar[5]

Ko'rsatkichlar	Yillar		
	2023	2024	2025
Onkologiyaga ajratilgan mablag'lar, (mln AQSh dollari)	11,1	14	16,1
Sog'liqni saqlash xarajatlaridagi ulushi,%	2,4	3	4
Saratonga qarshi dorilarga sarflangan mablag'lar, (mln AQSh dollari)	3	3,8	4

4 O'zbekiston davlat statistika qo'mitasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Unesco ma'lumotlari. https://databrowser.uis.unesco.org/browser/EDUCATION/UIS-EducationOPRI

5 https://databrowser.uis.unesco.org/browser/EDUCATION/UIS-EducationOPRI

Shu bilan birga, uning sog'liqni saqlash xarajatlaridagi ulushi 2,4 foizdan 4 foizgacha ko'tarilgan. Bu davlat tomonidan onkologik kasalliklarni erta aniqlash, diagnostika va davolash tizimini takomillashtirishga e'tibor kuchayganini anglatadi. Bundan tashqari, saraton kasalligiga qarshi dori vositalariga sarflangan mablag'lar ham 2023-yildagi 3 mln AQSH dollaridan 2025-yilda 4 mln AQSH dollarigacha oshgan. Biroq ushbu ko'rsatkichlar xalqaro ko'rsatkichlar bilan solishtirilganda hali past darajada qolmoqda. Masalan, Qozog'istonda 2025-yili onkologiya sohasiga 296 mln AQSH dollari miqdorida mablag' ajratilgan bo'lib, shundan 118,4 mln dollari saratonga qarshi dori vositalariga to'g'ri kelgan va bu umumiy xarajatlarning 40 foizini tashkil etgan. Taqqoslama tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda onkologiya sohasini moliyalashtirish sur'ati ijobiy bo'lsa-da, sohaning aholi ehtiyojlariga nisbatan moliyaviy qamrovi hali cheklangan. Ayniqsa, yuqori texnologiyali diagnostika, zamonaviy kimyoterapiya va biotexnologik dori vositalariga investitsiyalar yetarli darajada emas. Bu esa kelgusida davlat-xususiy sheriklik, xorijiy investitsiyalar va kreditlar, xalqaro tibbiy dasturlar orqali onkologiya sohasini qo'shimcha moliyalashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi tahliliy ma'lumotlardan kelib chiqib, sog'liqni saqlash sohasida, xususan, onkologiya xizmatini rivojlantirish hamda ushbu yo'nalishda soha mutaxassislarini o'qitish va tayyorlashga qaratilgan investitsiyalarning inson kapitaliga uzoq muddatli ta'sirini hisobga olgan holda, xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditlarini — 5 yillik imtiyozli davr bilan 20 yil muddatga — jalb qilish taklif etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalar iqtisodiy o'sish, mehnat unumdorligi va milliy raqobatbardoshlikni ta'minlovchi strategik omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga yo'naltirilgan investitsiyalar mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va aholi turmush sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim sohasida yoshlar va pedagog xodimlarning xorijiy oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishini moliyalashtirish uchun yillik 20 ming AQSH dollarigacha bo'lgan ta'lim kreditlarini ajratish inson kapitaliga investitsiyalarning bozor tamoyillariga asoslangan samarali moliyaviy instrumenti hisoblanadi. Mazkur mexanizm yuqori malakali kadrlar tayyorlash, zamonaviy bilim va texnologiyalarni milliy iqtisodiyotga transfer qilish hamda davlat boshqaruvi va iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini xalqaro standartlarga mos mutaxassislar bilan ta'minlash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, ta'lim kreditlari inson kapitaliga investitsiyalarning xususiy va davlat manbalarini uyg'unlashtirish orqali ta'lim sohasida moliyalashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Sog'liqni saqlash sohasida, ayniqsa, onkologiya xizmatini rivojlantirish va sohada yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan investitsiyalarni uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan baholash muhim ahamiyatga ega. Ushbu sohada xalqaro moliya institutlarining 5 yillik imtiyozli davrga ega bo'lgan 20 yillik uzoq muddatli kreditlarini jalb qilish zamonaviy tibbiy infratuzilmani yaratish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish va tibbiy xizmatlar sifatini oshirish imkonini beradi. Bunday investitsiyalar aholi salomatligini yaxshilash, mehnat resurslari sifatini oshirish va inson kapitalining barqaror rivojlanishini ta'minlash orqali milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishda bozor mexanizmlari, ta'lim kreditlari va xalqaro imtiyozli moliyalashtirish instrumentlaridan samarali foydalanish mamlakatda intellektual va sog'lom inson resurslarini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
2. The Journal of Political Economy. 1962. Vol. 70, No. 5, Part 2: Investment in Human Beings. University of Chicago Press.
3. Becker, G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. New York: National Bureau of Economic Research; Columbia University Press, 1964.
4. Петти, В. Экономические и статистические работы. Москва: Соцэкгиз, 1940. 324 с.
5. Щетинин, В. П. Человеческий капитал и неоднозначность его трактовки // Мировая экономика и международные отношения. 2001. № 12. С. 42–49.
6. Дятлов, С. А. Теория человеческого капитала. Учебное пособие. Санкт-Петербург: Изд-во СПбУЭФ, 1996.
7. Крутько, В. Н., Смирнова, Т. М. Человеческий капитал: проблема и ресурс инновационного развития России. Москва: Цифровичок, 2012. 227 с.
8. UNESCO Institute for Statistics. UIS Data Browser: Education statistics, international student mobility indicators.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.
10. World Health Organization. Global cancer burden growing, amidst mounting need for services. 2024.
11. IQVIA Institute for Human Data Science. Global Oncology Trends 2025. 2025.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz